

## LEKSIK VA SEMANTIK BOG'LANISHLARNING INGLIZ TILIDAN O'ZBEK TILIGA TARJIMA QILISH MUAMMOLARI

*Nilufar Arifjanova Mirsidikovna*

*O'zDJTU, Filologiya fakulteti Nazariy fanlar kafedrası, katta o'qituvchi*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada leksik bog'lanishlarni tarjima qilishda leksik va semantik xususiyatlarni hisobga olgan holda ularni ingliz tilidan o'zbek tiliga aniq (to'g'ri) tarjima qilishning ahamiyati haqida so'z boradi. Muallif ushbu muammoni o'rganar ekan, leksik birliklarning tarjima muvofiqlik darajasiga ko'ra to'liq muvofiqlik, qisman muvofiqlik va to'liq muvofiqsizlik kabi uch xil bog'lanishlarni aniqlaydi.

**Kalit so'zlar:** leksik xususiyatlar, semantic xususiyatlar, bog'lanish, aniq tarjima, to'liq leksik muvofiqlik, qisman leksik muvofiqlik, to'liq leksik muvofiqsizlik.

### تعليق توضيحي

السّمات مراعاة مع ،الأوزبكية إلى الإنجليزية من المعجمية للمركبات الدقيقة الترجمة أهمية المقالة هذه تتناول حسب المعجمية الوحدات مجموعات من أنواع ثلاثة المؤلف حدد ،المشكلة هذه دراسة عند .ترجمتها عند والدلالية المعجمية التام التوافق وعدم ،الجزئي والتوافق ،التام التوافق مثل ،الترجمة توافقها درجة التوافق ،الكامل المعجمي التوافق ،الدقيقة الترجمة ،الاتصال ،الدلالية السمات ،المعجمية السمات :الدالة الكلمات الكامل المعجمي التوافق عدم ،الجزئي المعجمي

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются важность точного перевода лексических соединений с английского на узбекский язык с учетом лексических и семантических особенностей при их переводе. При изучение данной проблемы автор выделяет три вида соединения лексических единиц по степени их переводческой совместимости такие как полная совместимость, частичная совместимость и полная несовместимость.

**Ключевые слова:** лексические особенности, семантические особенности, соединение, точный перевод, полная лексическая совместимость, частичная лексическая совместимость, полная лексическая несовместимость.

**Abstract.** This article discusses the importance of accurate translation of lexical compounds, taking into account lexical and semantic features when translating them from English into Uzbek. To study this problem, the author identifies three types of combination of lexical units according to the degree of their translation similarity, such as complete similarity, partial similarity and total dissimilarity.

**Key words:** lexical features, semantic features, connection, accurate translation, complete lexical similarity, partial lexical similarity, total dissimilarity.

So'z tilshunoslikning asosiy leksik birligi xisoblanib, til strukturasida formal va ma'no jihati bilan to'rt bosqichda ilmiy tadqiq etiladi:

- 1) fonologik jihatdan so'zning fonemalar sostavi va uning aksent (urg'u strukturasini) o'rganiladi;
- 2) morfologik jihatdan so'zning morfemik tuzilishi ilmiy analiz qilinadi;
- 3) leksik jihatdan so'zning atama, birlik ekanligi, ya'ni nom qo'yish bilan bog'liq tomoni qaraladi;
- 4) semantik jihatdan so'zning turli ma'no tomonlari tadqiq etiladi.

Tilning leksik va semantik xususiyatlari, ularning qo'llanishi, boshqa so'zlar bilan birikish va bog'lanish imkoniyatlari, tilning leksik tizimida 'joylashish' o'rni turli tillarda o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, doim ham mos kelavermaydi. Ikki til orasidagi semantik nomutanosibtning hamma holatlarini birdek qamrab olish mumkin bo'lmaganligi tufayli, biz uni tipik xususiyatlariga qarab o'rganamiz.

Tarjima ma'lum matnni bir tildan ikkinchi tilga tarjima qilish uchun doimiy izlanish jarayoni bo'lganligi sababli, tarjimonlar ko'pincha ikkala tildagi farqlar natijasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan ko'plab muammolar va qiyinchiliklarga duch keladi. Leksik, semantic va stilistik muammolar tarjima muammolarining asosiylaridan hisoblanib, ulargi ma'lum yondashiv asosida o'rganib chiqish lozim. Bu yerda aniqlik – tarjimaning har qanday turida hoh og'zaki bo'lsin hoh yozma, u tarjimada stilistik ustuvorliklardan biridir.

Tarjima nazariyasi va amaliyotiga ko'ra tarjima jarayonida manba tilidagi matn butunligicha yoki segmentlarga bo'lingan holda turli xil o'zgarishlarga uchrashi mumkin. Tarjimaning o'zi bir tildan boshqa tilga ko'chish yoki o'tishdir. Matn va og'zaki nutqni tarjima qilish jarayonida o'quvchiga aniq tarjimani havola qilish uchun tarjimonlar ikki til orasidagi leksik muvofiqlikni nazardan qochirmagan holda har xil transformatsion usul va texnikalardan foydalanadilar.

Mazkur tadqiqotimizda bog'lanishlarning leksik va semantik xususiyatlarini va ularning tarjimadagi muammolarini ko'rib chiqamiz:

### ***Leksik bog'lanishlarning xususiyatlari***

Bog'lanishlarni ingliz tilidan o'zbek tiliga tarjima qilishda *leksik* muvofiqlik turlarini quyidagicha tasniflash mumkin:

1. To'liq leksik muvofiqlik;
2. Qisman leksik muvofiqlik;
3. To'liq leksik nomuvofiqlilik.

***To'liq leksik muvofiqlik*** – ingliz va o'zbek tillari orasida kamdan-kam uchraydigan holat. Odatda, ular quyidagi leksik guruhlariga tegishli bo'ladi:

- a) atoqli ot va geografik joy nomlari;
- b) ilmiy va texnik atamalar;
- c) oy, hafta, kun va sonlar.

*Uzbekistan, computer, January*

***Qisman leksik muvofiqlik.*** Tarjima amaliyotida leksik birliklarning qisman mosligi ko'p kuzatiladi. Qisman moslik manba matndagi so'zning tarjima tilida bir qancha muvofiqliklari mavjud bo'lganda ro'y beradi. Uning sabablari quyidagilar:



➤ tildagi ko'plab so'zlar polisemantik bo'lib, bir tildagi so'z ma'nosi bilan boshqa tildagi so'z ma'nosi bir-biriga to'lig'icha mos kelmaydi. Shuning uchun so'zlarni tarjima qilish jarayonida ularning ma'nolari kontekst ichida ochib beriladi

*house (uy, boshpana, parlament), head (bosh, kalla, rahbar, boshliq).*

➤ so'zlarning sinonimik qator bo'yicha tanlanishi va izohlanishi. Sinonimlardan foydalanganda ularning semantik belgilari mohiyatini aniqlash zarur. Shunday qilinganda sinonimik qator so'zarining ma'nolari, leksik va stilistik ma'nolaridagi farqlar, sinonimik qatorlardagi ayrim komponentlarining birikish imkoniyatlari hisobga olinadi:

*dismiss, discharge – ishdan bo'shatmoq (adabiy tilda); sack, fire – haydamoq (og'zaki nutqda)*

➤ har bir so'z o'zining nominativ ma'nosiga ega. Turli tillarda nominativ birliklar bir xil ma'no anglatishi mumkin. Chunki har bir tilning nominativ birligida shu tilga xos "voqelikni turli qismlarga bo'lib ifodalashning turli tamoyillari" mavjud.

**To'liq leksik muvofiqlilik.** Ma'lum so'zlarni tarjima qilishda leksik birliklarning o'zaro leksik muvofiq kelmasligi kuzatiladi.

#### **Semantik bog'lanishlarning xususiyatlari**

Bog'lanishlarni ingliz tilidan o'zbek tiliga tarjima qilishda *semantik* muvofiqlik turlarini ham quyidagicha tasniflash mumkin:

1. To'liq semantik muvofiqlik/o'xshashlik;
2. Qisman semantik muvofiqlik/o'xshashlik;
3. To'liq semantik muvofiqlilik/ o'xshamaslik.

**To'liq semantik muvofiqlik/o'xshashlik.** Семантик ўхшашликда таржима сўзма сўз тушади, яъни семантик маъноси бир тилдан иккинчи тилга таржима қилганда ўзгармайди:

Walking along green trees in the park in spring is so enjoyable!

*green trees* – яшил дарахтлар

**Qisman semantik muvofiqlik/o'xshashlik.** Qisman semantik muvofiqlik / o'xshashlik esa so'z bog'lanidagi bitta elementining aynan o'zidek tarjima qilinmasligidir:

The government supports green activity.

*green activity* – табиат ёки экология тарафдорларининг ҳаракати.

Green industry can save our planet!

*green industry*=industry without hazards to nature and environment.

'Sanoat' yashil bo'lishi mumkin emas, bu yerda u tabiatga eng kam ta'sir ko'rsatadigan qulay muhitni anglatadi.

**To'liq semantik muvofiqlilik/ o'xshamaslik.** Leksik irliklarning bunday bog'lanishida elementlarning birontasi bir biriga to'liq mos tushmaydi, biroq ularning mazmuni to'liq saqlanib qoladi:

There is some *chemistry between people that doesn't mix.*

Xarakterlari bir bibirga to'g'ri kelmaydigan odamlar bor.

Ushbu gapda *chemistry* so'zi 'xarakter', *mix* esa 'to'g'ri kelmaslik', mos tushmalik' deb tarjima qilinib, Bunday bog'lanishlar asosan ikki va undan ortiq so'zlardan iborat bo'ldi.

Yuqoridagi ilmiy-nazariy fikrlardan va misollar leksik va semantik bog'lanishlarning to'liq, qisman va mos kelmaslik darajalariga ko'ra o'rganilishi tarjima muammolarining yechimining biri deb hisoblashimiz mumkin.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Qo'chqortoyev. So'z ma'nosi va uning valentligi. O'zbekiston SSR, "Fan"; Toshkent. 1977.
2. Просветительство в литературах Востока. М.Наука 1973.
3. Melikuziev, A. L. (2022). Historical and modern classification of paralinguistics. *Academicia Globe: Inderscience Research*, 3 (10).
4. Mukhammad, K. K., & Melikuziev, A. L. (2022, December). The essence of nonverbal communication. In international conferences. Vol. 1, No. 19, pp. 91- 93.
5. Melikuziev, A. L. (2022). Historical and modern classification of paralinguistics. *Academicia Globe: Inderscience Research*, 3(10), 126-128
6. Nida, Eugene Albert. 1947. Bible translating: An analysis of principles and procedures with special reference to aboriginal languages. New York: American Bible Society.